



НАУЧНЫЙ
ИМПУЛЬС

ЦЕНТР НАУЧНОЙ
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ФОКУС



Последние
изменения

Последние
информация

Последние
шаги

И НОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ



Международный современный научно-практический журнал

Научный Фокус

№ 7 (100)
ноября 2023 г.

Часть 1

Издается с май 2023 года

Москва 2023

Председатель редколлегии:

Гуляева Елена Камаловна - Представитель технической поддержки

Редакционная коллегия:

Макаровский Руслан Сергеевич - Заведующий кафедрой организационного управления Института прикладного анализа поведения и психолого-социальных технологий, практикующий психолог, специалист в сфере управления образованием.

Арестова Инесса Юрьевна – канд. биол. наук, доц. кафедры биоэкологии и химии факультета естественнонаучного образования ФГБОУ ВО «Чувашский государственный педагогический университет им. И.Я. Яковлева», Россия, г. Чебоксары;

Ахмеднабиев Расул Магомедович – канд. техн. наук, доц. кафедры строительных материалов Полтавского инженерно-строительного института, Украина, г. Полтава;

Бахарева Ольга Александровна – канд. юрид. наук, доц. кафедры гражданского процесса ФГБОУ ВО «Саратовская государственная юридическая академия», Россия, г. Саратов;

Бектанова Айгуль Карибаевна – канд. полит. наук, доц. кафедры философии Кыргызско-Российского Славянского университета им. Б.Н. Ельцина, Кыргызская Республика, г. Бишкек ;

Волков Владимир Петрович – канд. мед. наук, рецензент АНС «СиБАК»;

Елисеев Дмитрий Викторович – канд. техн. наук, доцент, начальник методологического отдела ООО "Лаборатория институционального проектного инжиниринга";

Комарова Оксана Викторовна – канд. экон. наук, доц. доц. кафедры политической экономики ФГБОУ ВО "Уральский государственный экономический университет", Россия, г. Екатеринбург;

Лебедева Надежда Анатольевна – д-р филос. наук, проф. Международной кадровой академии, чл. Евразийской Академии Телевидения и Радио, Украина, г. Киев;

Маршалов Олег Викторович – канд. техн. наук, начальник учебного отдела филиала ФГАОУ ВО "Южно-Уральский государственный университет" (НИУ), Россия, г. Златоуст;

Орехова Татьяна Федоровна – д-р пед. наук, проф. ВАК, зав. Кафедрой педагогики ФГБОУ ВО «Магнитогорский государственный технический университет им. Г.И. Носова», Россия, г. Магнитогорск; **Самойленко Ирина Сергеевна** – канд. экон. наук, доц. кафедры рекламы, связей с общественностью и дизайна Российского Экономического Университета им. Г.В. Плеханова, Россия, г. Москва ;

Сафонов Максим Анатольевич – д-р биол. наук, доц., зав. кафедрой общей биологии, экологии и методики обучения биологии ФГБОУ ВО "Оренбургский государственный педагогический университет", Россия, г. Оренбург;

Милютин Николай Даминович – Доктор юридических наук;

Сергеев Анатолин Викторович – Кандидат биологических наук.

Научный Фокус: научный журнал. – № 7 (100). Часть 1. М., Изд. «МЦНО», 2023.

Журнал «Научный Фокус» освещает сферу духовно-просветительского мышления человека, общественно-политическую жизнь человека, институты гражданского общества, глобальные проблемы, проблемы образования, новые технологии, производимые сегодня, реформирование системы образования и публикуются научные статьи, посвященные открытому научно-популярному анализу.

СОДЕРЖАНИЕ:

ПРЕДЛАГАЕМАЯ МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩЕГО ДЕБИТА СКВАЖИН Самадов А.Х Шукруллаев Д.Д	12
FOLKLOR NAMUNALARINING ANIMATSION FILMLARINI YARATISHDAGI O'RNI Eshmurzayev Yusuf Meylikulovich Ergasheva Zilola Saydulloyevna	19
"LEXICAL LAYERS OF THE UZBEK LANGUAGE" Sindorov Lutfillo Kurolovich Mamarajabov Yokubjon Umedovich	24
BIOLOGIK OB'YEKTLARNI IDENTIFIKATSIYALASHNING ALGEBRAIK KORREKTSIYALI QISMIY PRETSIDENTLIKKA ASOSLANGAN ADAPTIV TANIB OLISH ALGORITMLARI A.B.Xurramov D.Shukurov Z.Abdiraimova	28
SAPONINLI, ZAXARLI, OSHLOVCHI, MANZARALI, EFIR MOYLI VA BOSHQA XUSUSIYATI O'SIMLIKLAR, ULARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI Raxmonova Surayyoxon Baxtiyorjon qizi	37
DÓGEREK JUMÍSLAR ÚYRENIW USÍLLARÍ Yusupov Konisbay Abilovich Sagidullaeva Klara Seytniyazovna	44
O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR- BIRIDAN FARQLANISHI Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li	57
VITAMINLAR Shodmonqulova Diyora Bobur qizi Qo'yliyev Xumoyun Zokir o'g'li Mustafoeva Fotima Karimovna Qurbanmurodov Axmadshoh Sobirovich	64
ZA`FARON (CROCUS SATIVUS) O'SIMLIGINI ISHLATILISH SOHASI Ibrohimova Gulhayoxon Mizoramxon qizi Sattorova Madina Abduvaxob qizi	70
RHEUMATOID ARTHRITIS Berdiyeva Ra'no Sultonovna Ubaydullayev Abbosxo'ja Hikmatilla o'g'li Iskandarova Iroda Ergashevna	73
DIFFERENCE BETWEEN BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP Azizov Javokhirbek Odilovich	76
TERMINOLOGIYA FANI VA UNING RIVOJLANISHI. TERMINOLOGIYANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. TERMINLAR VA ULARNI O'RGANISH MASALALARI	79

Ruzimbayeva Nasibaxon Temur qizi	
TERMINOLOGIYA SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ILMIY TADQIQOTLARNING AHAMIYATI VA VAZIFALARI M.A. Kaxarova	85
TERMINOLOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI Kaxarova Muxabbat	90
TALIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR Bo'riyev Samandar Hamid o'g'li Sh.Mamayoqubova	96
НОВАЯ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА И ЕЕ КОНФЛИКТЫ В УЗБЕКСКОМ СЕЛЕ Эгамуродов Фазлиддина	102
ESHITISH IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TALIM Olish IMKONIYATIDAN MAXRUM EMASLAR Ro'ziqulova Zarina Yusuf qizi	109
YURIDIK DISKURSNING INSTITUTIONAL XUSUSIYATI Raxmatova Bahora Ibodulla qizi	113
THE EFFECT OF BILINGUALISM ON THE LEARNING THE ENGLISH LANGUAGE Oripova Madinabonu A'zamovna	118
MAXSUS PEDAGOGIKA Xojiboyeva Dinora Bahtiyor qizi	121
INGLIZ TILINI O'RGATISHDA FOYDALANILADIGAN ZAMONAVIY USULLAR Mashkurova Munira Abdurahmon qizi	125
INGLIZ TILIDA ZAMONLAR Mashkurova Munira Abdurahmon qizi	129
AMENORRHOEA Shodmonqulova Diyora Bobur qizi	132
TASHQI TOMONIDAN ISSIQLIK IZOLYATSIYASI QO'YILGAN QALINLIGI 510 MM G'ISHT DEVORDAGI ANTISEYSMIK POYAS JOYLASHGAN TUGUNNING TEMPERATURA MAYDONINI ICHKI HAVO TEMPERATURASI +20 OS VA TASHQI HAVO TEMPERATURASI -15 OS BO'LGAN SHAROIT UCHUN HISOBLASH NATIJALARI Xaydarova Kamola Hakimovna Ismatova Dilfuza Maxmudovna	137
POLIFONIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA STRUKTURASI Raxmonova Vazira Raxmonivna	140
O'ZBEK XALQ FOLKLORI IJODINI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Saloxov Nuriddin Muxiddinovich	145
BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIGA MUSIQIY QOBILIYATINI BILISHNING ILK BOSQICHLARI METODLAR Majidova Shaxnoza Kamariddinovna	149
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BOLALAR VA O'SMIRLARNING IJTIMOIY HIMOYASI	152

Karimova Shaydo Botir qizi	
UNIVERSITET TALABALARIDA INTELLEKTUAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH	156
O'rinova Feruza Uljayevna	
O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI	159
Bazarova Gulsanam Geldibay qizi	
ONA TILIMIZ SOFLIGI YO'LIDA FIDOKOR BO'LAYLIK!	162
Karimova Madina	
YURTIMIZDA SAN'AT VA MADANIYAT RIVOJI	171
Abdusattorova Madina	
ХЛОПОК – БЕЛОЕ ЗОЛОТО УЗБЕКИСТАНА	175
Шарипов Музаффархон Хокимжонович	
А. А. Ежевского	
Абрамова Ирина Николаевна	
ВОЕННО-СТРАТЕГИЧЕСКИЕ КОНТРМЕРЫ КИТАЯ В НОВУЮ ЭПОХУ ВОЕННОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	178
Закиров Кудрат Суннатович	
КОМПЛЕКС РАЗВЕДКИ И ОГНЕВОГО ПОРАЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ БЕСПИЛОТНЫХ ЛЕТАТЕЛЬНЫХ АППАРАТОВ	186
Савин Евгений Владимирович	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	192
Умаров Азиз Авазович	
Вохобов Турабек Ташмурадович	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	196
Умаров Азиз Авазович	
Бозорова Фазилат Жовли кизи	
DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR...	201
Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li	
МЕРЫ ПО УЛУЧШЕНИЮ ОХРАНЫ ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	205
С.Б.Гаибназаров	
Б.Г. Гуломжонов	
Л.Р. Мадяров	
OLIY TA'LIMDA O'QITISH JARAYONINI BOSHQARISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI	208
Tursunbayeva Yulduz Radj qizi	
ЎЗБЕК МЕНТАЛИТЕТИ ТУШУНЧАСИ ҲАҚИДА БАЪЗИ ФИКР МУЛОҲАЗАЛАР	214
Турсунов Нурулло Нарзуллаевич	
Абдунабиева Нозима Ғуломжон	
FANLARNI INTEGRATSIYALAB O'QITISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK VA METODIK ASOSLARI	218
Q.T.Boltayeva	
G.T.G'aybullayeva	
N.J.Raxmatova	
БОЛАЛАРНИ ОВҚАТЛАНИШИГА БОҒЛИҚ ҲОЛДА	221

АНТРОПОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ НАТИЖАЛАРИ Усмонова. Г.Б	
SUN'IY IDROKNING KELAJAKKA TA'SIRI: UNING INSONIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI Zarifaxon Sidiqova Ilhomjon Aldashev	224
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI Aldashev Ilhomjon Ahmadaliyeva Gulira'no	229
TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI Foziljonova Nigoraxon Aldashev Ilxomjon	233
TURLI SOHALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN ROLI Shodaliyeva Madinabonu Aldashev Ilxomjon	236
BOSHLANG'ICH SINIF TA'LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH Munisaxon Odiljonova Aldashev Ilhomjon	239
SIYOSIY JARAYONLARNING SUBYEKTI VA UNING MOHIYATI Abdulganiyev Adhamjon Abdusamad o'g'li	243
SIYOSIY JARAYONLARNI O'RGANISH METODLARI G'ofirov Zuxriddin Jamshid o'g'li	246
SAYLOV JARAYONLARIDA ISHTIROK OMILI Fayzullayev Shohruh Jo'rabek o'g'li	249
QISHLOQ XO'JALIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR" Qurbonov Muhiddin Narzullayeva Ozoda	252
AKT RIVOJLANGAN DAVRDA TA'LIM BOSHQARUVIDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI Ikromova Mahfiratxon Xikmatjon qizi Aldashev Ilhomjon	257
SOG'LOM OILAVIY MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI Jabborova Shodiya Oybekovna Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich	263
BOLALARNI ZORAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING BARCHA SHAKLLARI Jabborova Shodiya Oybekovna Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich	268
OG'IR HAYOTIY VAZIYATGA TUSHGAN YOKI TUSHISH XAVFI YUQORI	272

BO'LGAN HAR BIR OILA BO'YICHA ALOHIDA "IJTIMOIY XIZMAT ISHI"NI YURITISH Jabborova Shodiya Oybekovna Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich	
ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЮКСАЛИШ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРНИНГ ТАРБИЯСИДА ОИЛАНING АҲАМИЯТИ Худжакулова Феруза Рахматовна	277
EQUIVALENCE AT THE SPEECH LEVEL Djumamuratov A Jumabaeva Sh	282
БЕДАНАЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА МАХСУЛДОРЛИГИДА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ РОЛИ (АДАБИЁТ ШАРХИ ВА УЛАРГА ИЗОХ) Одилова Н.А Ражабов.А	288
YASSI QUYOSH KOLLEKTORLARINING TAHLILI Xidirov Mirabbos Mirzayor o'g'li	293
NEYROSONOGRAFIYA TEKSHIRISH USULI Maxmayusupov Muhiddin Usarov Muxriddin	298
DETERMINATION OF FRICTION FORCE IN LIQUID AND AIR USING A SPRING PENDULUM Boydedayev Sobirjon Rahimjonovich Yuldashev Kodirjon Abdumutalib o'g'li Turgunov Adham Rakhmatillayevich	301
МАХОРАТЛИ СПРИНТЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ИННАВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ЎРНИ Орипов Азизджон Азизов Собитхон Валиевич	305
РОЛЬ ТРЕНЕРА В СТАНОВЛЕНИИ ИГРОКОВ РАЗНОГО АМПУЛА В БАСКЕТБОЛЕ Костикова О.В	309
ХРОНИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ ЛОР ОРГАНОВ У ДЕТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФИЛЯ ПАТОЛОГИИ Назирова Дилмурод Мухтаралиевич А.Г. Ганиев	315
ANALYSIS OF THE QUALITY OF LIFE OF CHILDREN WITH A PREDISPOSITION TO ALLERGIC DISEASES Sultanov Nodirbek Jasurzhon A.G. Ganiev	321
EPIDEMIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ALLERGIC DISEASES IN CHILDREN OF ANDIJAN Isakzhonov Olloberdi Kamoliddinovich Ganiev A.G	330
THE EFFECTIVENESS OF METHODS TO INCREASE THE FAST	336

ENDURANCE OF MAIN REFEREES IN FOOTBAL Bogibekov Azamat Oybek o'g'li	
PROBLEMS AND SOLUTIONS OF COMPUTER LINGUISTICS Allambergenova Maftuna	343
MATEMATIKA FANINI BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIGA O'QITISH METODIKASI Meliboyeva Musallam Mavlon qizi	345
THE METHOD OF INCREASING THE STABILITY OF THE EQUILIBRIUM ABILITY OF PLAYERS WITH AMPUTATED LIMBS Mirqosimov Mirzoid Mirzoxid o'g'li	350
EXPLORING LINGUACULTURAL DIFFERENCES: VERB STRUCTURES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES Mamataliyeva Xulkaroy Murodjonovna	359
DINIY JURNALISTIKANING ILK KO'RINISHLARI Zilola Abdivaxitova	362
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING DUNYOQARASHI VA TA'LIMOTI, BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATLI JIHATLARI G.N.Bozorova	367
ROLE OF SMART TECHNOLOGIES IN EDUCATION Boyxo'rozova Madina Dilnoza Fazullayeva	370
COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN HIGHER EDUCATION SYSTEM Akhmadova Sevara Fayzullayeva Dilnoza	374
РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ Эрматов К.М Шакиров Б.Б Корачаева О.А	380
АНАЛИЗ ДЕЙСТВУЮЩИХ СИЛ НА МАКСИМАЛЬНОЙ ВЫСОТЕ ПОРТАТИВНОЙ МЕХАНИЧЕСКОЙ ЛЕСТНИЦЫ ДЛЯ ВИНОГРАДНИКОВ Ибрагимжонов Бахромджон Хамидович	388
МОБИЛЬНОЕ МЕХАНИЧЕСКОЕ УСТРОЙСТВО ДЛЯ УХОДА ЗА ВИНОГРАДНИКАМИ И ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫЙ СИНТЕЗ ЕГО ОСНОВНЫХ ПАРАМЕТРОВ Б.Иминов	396
ДЕФОРМИРОВАТЬ ПОВЕРХНОСТНЫЙ СЛОЙ ДЕТАЛИ С ПОМОЩЬЮ ВИБРОИДЕНТИФИКАТОРА Райимжонов Омадбек Улуғбек ўғли	405
РЫНОЧНЫЕ АСПЕКТЫ ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК В ВУЗАХ Рузиев Абдулвахаб Абдулхаевич	414
УЛУЧШЕНИЕ УСЛОВИЙ РАБОТЫ ВОДОПРИЁМНЫХ СООРУЖЕНИЙ ИРРИГАЦИОННЫХ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ Б.М.Шакиров Ассистент Б.Б	420

THE USE OF INTERNATIONAL MAGAZINES, NEWSPAPERS IN LANGUAGE ACQUISITION Abdurasulova Gulzodaxon	428
TOHIR MALIK ASARLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR Davronova Surayyo Mardon qizi	431
ABDURAUF FITRAT. "ABULFAYZXON" DRAMASI G'ofurova Malohat Abdulkarimovna	435
MA'NAVIY YETUK SHAXSNI TARBIYALASHDA TARIXIY XOTIRANING O'RNI Abdurahmonova Malika Tolqunovna	438
CHET TILLARINI O'RGANISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI Durdonaxon Noraliyeva Ilhomjon Aldashev	441
ПРИМЕНЕНИЕ УРАВНЕНИЙ ЛАГРАНЖА 2-ГО РОДА К ДВУХЗВЕННУМУ МЕХАНИЗМУ Собиров Х.А	446
ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ ВАЛОВ В МАШИНОСТРОЕНИИ Хаджиева Салима Садыковна	457
TRANSFORMATOR HAQIDA TUSHUNCHA Komiljonov Jasurbek O'ktamjon o'g'li To'xtasinova Mushtariy Rustamjon qizi G'aniyev Qobuljon G'opirjon o'gli	464
ZANJABIL (ZINGIBER OFFICINALE) O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA KIMYOVIY TARKIBI Hamrayeva N.T Qilichev Sh.Sh	468
MAKTABGACHA TA'LIMDAGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR Шерибаева Угулхан Халилаевна	472
JAHON AHOLISINING TABIIY VA MEKANIK KO'PAYISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONI SHUNINGDEK SHAHARLAR RIVOJLANISHI Omonullayev Og'abek Hamidullayevich	476
ZAMONAVIY OMMAVIY QIRG'IN QUROLLARIDAN HIMOYALANISH Isanov Sherzod O'razboyevich	479
NEMIS TILI O'QITISH AFZALLIKLARI Sayyora Ahmedova Axmedova Sayyora Abduraimovna	483
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNI Norbeko'va Baxtigul Alxam qizi	487
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕПАРАТА «АСКОРИЛ» ПРИ ЛЕЧЕНИИ КАШЛЯ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА Батиров Азизбек Равшанович	490
ФИЗИОТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ Mirzajonova Hilola Sobirjonovna	498
ZANG MODIFIKATORI YORDAMIDA METAL YUZALARDA XIMOYA QOPLAMASI HOSIL QILISH	503

Хojimatov Azizbek Asomiddinovich	
----------------------------------	--

OLIJ TA'LIMDA O'QITISH JARAYONINI BOSHQARISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Tursunbayeva Yulduz Radj qizi

Pedagogika fakulteti

"Maktab menejmenti" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuzasidan fikr yuritilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar, kontsepsiya mazmuni, xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari, kredit-modul tizimi.*

Biz bugun Yangi O'zbekiston hayotining har bir sohasida chuqur islohotlar maydoniga aylanayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichgakirdi

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Kontsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar

oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Yoshlarni bilim malakali etib tarbiyalash jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida ta'lim tizimi izhil rivojlantirilmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar avvalo qamrovini oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash professor-o'qituvchilarni modiy qo'llab-quvatlashga qaratildi.

Jumladan oxiri 3 yilda oliy ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga etdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mintaga oshdi. Ularning moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari doirasida 64 ta yani kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yo'lga qoyildi. Professor-o'qituvchilarning maoshi o'rtacha 3,5 baraarga oshirildi.

Lekin sifat borasida hali o'zgarishlar hali sezilmayapti. Ta'lim sifatini yaxshilash, o'quv ishlarini bozor ehtiyojlaridan keliob chiqib tashkil etish masalasi Oliy a o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, rektorlarnion e'tiboridan chetda qolib ketmoqda.

Masalan buguni kundagi 815 ta yo'nalishning 55 foizi mehnat bozori talablariga javob bermaydi. Oliy talim muassasalari 2 mingga yaqin fanlari bo'yiha darsliklar bilan ta'minlanmagan, o'quv dasturlar bundan 40 yil oldingi fan yo'nalishlar asosida tuzilgan. Umuman O'tkazilgan so'rolardan aholinin 65 foizi oliy ta'limdai islohotlar natijasi sezilomayotganini aytgan.

Shu bois yig'ilishda davlatimiz rahbari sohadagi 4 ustuvor vazifani ko'rsatib o'tdi:

Birinchisi - oliy ta'lim muassasalri boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatini kenaytirish.

Ikkinchisi - o'quv jarayoni bozor talablariga moslashtirib, ishlab hiqarish bilan uzviyliini ta'minlash talabaning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratsh.

Uchinchisi - oliy ta'lim muassasalarinin ilmiy salohiyatini oshirish, ilm fan va innovatsiyani rivojlantirish.

To'rtinchisi - professor-o'qituvchilar va talabalar uchun qog'ozbozlikni kamaytirish sohani raqamlashtirish orqali byurokratik va korrupsiyani keskin qisqartitirish.

Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy- boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta'kidlandi. Ya'ni bundan buyon o'quv rejasi va adabiyotlar, fan dasturlarini joriy etish, professor-o'qituchilarning o'quv yuklamasi hamda ta'lim shakllarini belgilashni oliygoh boshqaruv kenaashining o'zi hal qiladi. Endi har bir kafedraning faoliyati uning ilmiy salohiyati va yoshlarni seleksiya asosida ilmiy faoliyatga jalb etish ko'rsatkichlariga qarab baholanadi.

Buning uchun nufuzli xorijiy nashrlarda muntazam maqolalar chiqarib kelayotgan, shuningdek shogirdlari ilmiy ishlarini o'z vaqtida va sifatli himoya qilgan ilmiy rahbarlarga 5 tagacha doktorant va 3 tagacha mustaqil izlanuvchi olish huquqi beriladi.

Oliy ta'lim muassasalari rektorlariga kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib ularni o'quv-laboratoriya jihozlari va zarur texnika bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Har bir kafedraning tarmoq korxonalari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, o'qituvchilarning korxonalarda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Ta'lim jarayoni 2001 – yilda tasdiqlangan standartlar asosida olib borilmoqda. Lekin davrda Ta'limning xalqaro standartlari 2 marta yangidan qabul qilingan. Ayrim o'quv darslari zamon va bozor talabiga mos emas balki professor-o'qituvchilarga moslashgan. Talabalar o'z yo'nalishiga daxldor bo'lmagan fanlar bilan shug'ullanmoqda.

Shu bois mutasaddilarga davvlat ta'lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish barha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini kredit- modul tizimiga o'tkazish bo'yicha topshiriq berildi. O'qilayotgan fanlarni mazmunan qayta ko'rib chiqib ortiqcha takrorlanishini qisqartirish, bo'shagan dars soatlari o'rniga mutaxassislik fanlarni ko'paytirish hamda talabalarga mustaqil ilmiy izlanish uhun imkoniyat yaratish keraklii ta'kidlandi. Oliy ma'lumot talab qiladigan kasblar bilan to'ldirish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Masalan, kelayotgan 2020-21 o'quv yilining o'zida mamlakatimizdagi 33dan ortiq yirik OTMlar kredit-modul tizimiga o'tishi kutilmoqda. Mazkur OTMlarda asosan tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan - mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga -xizmat qiladi:

Birinchisi- talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

Ikkinchisi- talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama — kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi.

Ta'limning globallashuvi va xalqarolashuvi oliy ta'limda o'qitish jarayonini tashkil etish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash talabalarning maksimal mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, egallangan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish layoqatini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa, oliy ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga javob beradigan pedagogik tizim asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha

rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ustuvor vazifa etib belgilandi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida esa 2020-2021 o'quv yilidan mazkur tizim asosida o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berildi.

Kredit-modul tizimining imkoniyatlari va afzalliklarini bayon etishdan avval uning asosiy tushunchalariga to'xtalib o'tish lozim:

- o'qitishning kredit-modul tizimi – modulli o'qitish texnologiyalari va ECTS (ingl. European Credit Transfer and Accumulation System – kursdan kursga o'tish va ball to'plashning Yevropa tizimi) sinov kreditlari birligida amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish modeli;

- ECTS (European Credit Transfer System) – Yevropaning 45 davlati tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlashni Yevropa tizimi;

- “kredit” tushunchasi o'zida kasbiy tayyorgarlik mazmunida o'quv fanlari ulushini hisobga olish imkonini beruvchi miqdoriy tavsifni o'zida ifoda etadi. Kredit u yoki bu kursni yoki yaxlitlikda ma'lum bir ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur. 1 kredit 36 akademik soatga (27astronomik soat) teng; 1 hafta (amaliy yoki boshqa o'quv ishlari) 54 akademik soat 1,5 kredit birligiga teng; 6 hafta sessiya 9 kredit birligiga teng bo'ladi; 1 semestr imtixon 1 sinov birligiga teng; kunduzgi ta'lim shaklida asosiy ta'lim dasturlari uchun bir o'quv yilida o'rtacha 60 kredit ajratiladi; 3 yillik bakalavriat darajasini olish uchun 180 kredit, 4 yil uchun 240 kredit ajratiladi;

- sinov krediti – talabaning o'quv yuklamasini o'lchash birligi. U talabaning individual rejasida ko'zda tutilgan va tasdiqlangan barcha turdagi o'quv ishlarini hisobga oladi: auditoriya mashg'ulotlari (ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar), mustaqil ish, amaliy yo'naltirilgan Davlat imtihoniga talabaning tayyorgarlik ko'rishi va h.k.;

- “talabaning vaqt meyori” bir qancha elementlardan tashkil topadi: auditoriya uchun yuklama (umumiy soat hajmining 50%); mustaqil ish (umumiy soat hajmining 50%); kitoblarni o'qish va yozma ishga tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan vaqt; yozma ishga tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan vaqt; imtixonga tayyorgarlik ko'rish uchun ajratilgan vaqt;

- oliy ta'limga nisbatan qo'llanilganda “modul” deganda o'quv fanlari bo'yicha ta'lim dasturlarini mustaqil, mantiqiy tugallangan qismi nazarda tutiladi. Modul fanning ma'lum tugallangan qismi yoki yaxlitlikda fanning o'zi; modul o'zida bir qancha kurslarni qamrab olishi mumkin. Modul tarkibiga kiruvchi informatsiya didaktik maqsadga erishish uchun aniq tuzilish va yaxlitlikka ega keng ko'lamdagi murakkablikni aks ettiradi. Modul tuzilmasida majburiy tayanch komponent va variativ qism mavjud bo'ladi. Modul ma'lum bir fan sohasi haqidagi yaxlit tasavvurlarni hosil qiladi va mazkur modulni o'zlashtirish yakunida talaba o'zida namoyon qilishi lozim bo'lgan aniq kompetensiyalarni belgilash imkonini beradi;

- kompetensiya – ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyatni amalga oshirish uchun egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish qobiliyati.

O'quv jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimi quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi:

- har bir modulni o'zlashtirish bo'yicha nazorat o'tkazishni hisobga olgan holda fanlardagi o'quv materiallarini modullarga taqsimlash;
- bilimlarni baholashning turlicha ball shkalalaridan foydalanish;
- bilimlarning obyektivligini ta'minlash;
- semestr davomida muntazam ravishda talabalarning mustaqil ishlarini rag'batlantirib borish;
- ta'limda sog'lom raqobatni qaror toptirish.

Oliy ta'limda kredit tizimini qo'llash yaxlit ko'rinishda o'quv jarayonini samarali amalga oshirishning quyidagi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi:

- talabalarga individual o'quv rejalarini tuzish, fanlarni o'zlashtirish ketma-ketligini erkin aniqlashtirish, semestr bo'yicha shaxsiy o'quv mashug'lotlari jadvalini mustaqil tuzish imkonini taqdim etuvchi o'quv jarayonini individual yo'naltirilgan tarzda tashkil etish;

- talabalarning o'quv faoliyati natijalarini baholashning rag'batga asoslangan ball-reyting tizimi;

- ta'lim mazmunini belgilashga doir standart, o'quv reja va dasturlarni muntazam takomillashtirib borish;

- professor-o'qituvchilarga akademik erkinlik, shu jumladan o'qitish metodikasini erkin tanlash huquqini taqdim etish;

- ta'lim olish va professor-o'qituvchilarga ish haqi to'lash hajmini maqbullashtirish;

- universitet tuzilmasidagi bo'limlarning byudjet foydasi va xarajatlari optimalligini ta'minlash.

Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni ta'kidlash lozimki oxirgi 3 yil mobaynnida Ta'lim tizimi tubdan o'zgarganligi ni huquqiy normativ hujjatlardan tortib, kredit modul tizimi joriy etilganidan ko'rishimiz mumkin.

Shak-shubhasiz davlat va jamiyat yuksalishi tayanchi ta'lim hisoblanadi. Agar kredit-modul tiimi to'g'ri va to'liq joriy etilsa, u mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga juda kata ijobiy xususiyatlarni olib kirishini kutish mumkin. Jumladan, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning jahon tan olgan mukammal o'lchov birligining olib kirilishi, OTMlar o'quv dasturlarida muvozanat mayor paydo bo'lishiga, OTMlarda o'qish jarayonining shaffoflashishiga, o'quv dasturlari iqtisodiy, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllanishiga, darslarning sifati yaxshilanishiga va nihoyat har bir talaba ma'lum ma'noda o'zining mustaqil o'quv dasturiga ega bo'lishiga xizmat qiladi.

Kelgusida tyutorlik tizimida ham o'zarishlar qilinishi zero yaxshi tyutor – bu talabaga elkadosh murabbiy va mohir konsultantdir. U talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ushlashni o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora- tadbirlari to'g'risida. O'R QHT, 2017 y., 30-son, 729-modda.
3. Mayorov A.N. Monitoring v obrazovani. – M.: Intellekt-Sentr, 2005 – 424 s.
4. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.
5. Prezidentining, O. R. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori.
6. Qizi, T. Y. R. (2021). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 253-258.
7. Qizi, T. Y. R. (2021). TA'LIM PSIXOLOGIYASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 587-591.